

**Z.Q.Amonova**

*BuxDU dotsenti, f.f.d.*

**N.U.Maqsudova**

*BuxDU matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo`nalishi 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Maqlada Haziniy Ho`qandiyning ijodida payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning ta`rifiga tavsifi ochib berilgan. Shu bilan birga uning ijodi badiiy va g`oyaviy puxta, shakl va mazmun jihatdan o`ziga xos rang – barangligini ko`rishimiz mumkin. Shoир she`riyatining eng muhim jihat xalq tili va diliya yaqin holda ijod qilgan.

**Kalit so`zlar:** Haziniy, devon, bayt, payg`ambar, Muhammad (s.a.v), Qur`on, hadis, manba.

Xalqimiz uzoq yillar mosuvo etilgan buyuk madaniy merosimiz istiqlol yillarida yana avlodlar e`tiborida bo`lib, kun sayin bu bebaho merosimizning yangidan – yangi qirralari ochilib bormoqda.

Adabiyotning eng buyuk va muqaddas burchi odamga uning kimligini ko`rsatishdir. Badiiy adabiyotda, eng avvalo, inson va uning taqdiri, ruhiy olami va kechinmalari tasvirlanadi.

XIX asrning 2-yarmi va XX asrning boshlarida ko`hna adabiyotimizda yangidan yangi sahifalar ochildi. Badiiy va g`oyaviy puxta, shakl va mazmun jihatdan turf axil asarlar yaratilib, o`ziga xos rang – baranglik kasb etdi. Qo`qon adabiy muhitida bu davrda Muqimiyy, Furqat, Zavqiy, Nisbatiy, Muhyi, Mavlaviy, Muhsiniy kabi o`nlab shoirlar bore di. Shu istedodli shoirlar orasida Mavlono Haziniy Ho`qandiy ham yashab ijod etdi. Uning shoir sifatida shakllanishida o`z davrining adabiy muhiti ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Haziniy ijodi biz uchun betimsol maktab. Buyuk shoир o`z asarlari bilan mangu barhayot ekan, biz uni o`rganishda yangi – yangi qirralarini ochib bermog`imiz darkor. Shoир sh`riyatining eng muhim jihat uning xalq tili va diliya yaqin usulda ijod qilganidir. U o`ziga xos ijodiy uslubga egadir. Lirik she`rlarida ham diniy falsafiy she`rlarida ham aniq she`riy maromga amal qiladi. Haziniy she`riyati mavzu jihatidan juda keng hisoblanadi. Uning ijodida hamd, na`t, orifona, oshiqona hamda ma`viza kabi mavzular o`rin olgan. Mazkur she`rlarning ba`zilaridan “Qur`oni Karim” oyatlariga va payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v) hazratlarining hadislariga ishoratlar topamiz. Qur`on va hadislarga muvofiq, ularga hamohang holda asar bitish shoirlardan yuksak ma`naviy poklik va ulkan ilmiy salohiyat talab qiladigan uslubdir.

Haziniy To`ra she`riyatida haqiqiy ishq - Alloh taolloga nisbatan bo`lgan muhabbat, uning zotiy sifatlariga intilish jarayonida komillikka erishuv masalalari, Rasululloh Muhammad hazratlariga bo`lgan sadoqat kabi tasavvufiy mavzular ham qalamga olingan. Bu mavzular faqatgina alohida g`azallar (hamd, na`t, ma`viza) dagina emas, balki boshqa mavzulardagi she`rlar zamida ham o`z ifodasini topgan. Shunday ekan bu

mavzu keng qamrovli bo`lib, uning o`ziga xos timsol va badiiy tasvir vositalari bu mavzudagi g`azallarni tahlil va talqin qilish jarayonida ularni e`tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Biz maqolada Haziniy To`ra ijodida Muhammad payg`ambarimiz madhi keng o`rin olganligini ko`rishimiz mumkin. Quyidagi g`azallarda payg`ambarimiz timsoliga ta’rif berilgan:

“Gunohim avf etib,san mag`firat qilg`il,Xudovando”, “Muhammad Mustafo sha’niga nozil surai “Toho”, “Talabga yetkurib man xastani dilshod qil yo rab!”, “G`ubori gardi na’lig`a arsh ham yer-u samo muhtoj!”, “Demangiz oshiq ani,to urmasa devona shayx”, “Har kishi uqbotalab bo`lsa,duoni oxtarur”, “Kimda dard yo`qtur,biling,hargiz davoni istamas”, “Bulbuli sh`rida,gul,gulzorining ko`ksida dog`”, “Qiyomat kun,Xudovando shafoatdin nasib etgin”, “Tilar o`z nafsini kulli nabiy ro`zi qiyomatda”, “Ko`nguldadir yo ,Mustafo,Madina”, “Olam aro sharaflig`,qilsam bayon,Madina”, “Siza jon fido,yo hayot an-nabiy”, “Vafo qilmas jahon bizgaki,ul Odam Ato o`tdi”, “Olam aro yozding ani shuhratin”, “Ikki olamda erursiz osiylarga rahnamo”, “Nazar sol osiy ummatga,tasadduq,yo rasululloh,” kabi matla’lari bilan boshlanuvchi g`azallar hamda ko`plab murabba’,muxammas,musaddaslarda payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning vasfi madh etilgan. Shu g`azallardan birining tahliliga e’tibor qaratsak:

1-bayt:

Siza jon fido,yo hayot an-nabiy

Qilay man gado,yo hayot an-nabiy.

“Nabiy” so`zi (arabcha)-payg`ambarimiz.Ilohiy xabarlar keltiruvchi.Qur’oni Karimda “nabiy” va “rasul” so`zlari ko`p keladi.Jumladan,bu ikki so`z Muhammad (s.a.v)ga nisbatan ham ishlatiladi.Ammo bu so`zlarning ishlatilishida nozik ma’nolar borligi mulohaza qilinadi.Muhammad payg`ambarimizga nisbatan “nabiy” so`zi o`ttiz martacha ishlatilgan bo`lsa, asosan o`zaro insoniy aloqalar, nikoh,meros va o`lja taqsimlash kabi masalalarda ishlatilgan.

Ushbu baytda shoir o`zini gado hisoblab Muhammad alayhissalomga jonini fido qilishga ham tayyor ekanligini aytyapti.

2-bayt:

Otingiz - Muhammad rasuli xudo

Ki,siz Mustafo,yo hayot an-nabiy.

“Rasuli xudo” so`zi xudoning elchisi; “Mustafo” – 1.Tanlangan.2.Muhammad (s.a.v)ning laqablaridan biri.

Muhammad payg`ambarimizga Mustafo – tanlangan ismi berilgan.Alloh o`z so`zlarini bandalariga yetkazish maqsadida Muhammad alayhissalomni elchi qilib qilib yubordi.Qur’oni Karimda 124 ta payg`ambar nomi keltirilgan.Alloh taolo payg`ambarimiz Muhammad alayhissalomga hech kimga bermagan bu dunyo va oxiratning kamolotini ato etgan.Ul zotning qadr qimmatlari balandligi va Alloh taolo u kishini payg`ambarlikka

tanlagani bu dunyoda erishgan eng yuqori martabalaridir. Oxiratda esa Rasululloh bani inson sayyididir.

3-bayt:

Qiyomat kunida shafoat umid,  
Ki,biz purxato,yo hayot an-nabiy.

Ushbu baytda shoир qiyomat ya’ni Mahshar kunida har bir inson bu dunyoda qilgan barcha yaxshi –yomon ishlari uchun javob beradi.shu kunda Muhammad (s.a.v) ning shafoatidan umidvor ekanligin bildiradi.Bilib bilmay qilgan gunohlarimiz uchun Alloh taolo oldida bizga himoyachi bo`lishligini xohlaydi.

4-bayt:

Ki, xayrul-bashar,sayyid al-mursalin,  
Risolatpano ,y ohayo an-nabiy.

“Xayrul-bashar”- 1.Odamlarning yaxshisi. 2.Muhammad(s.a.v)nimg laqablaridan biri.  
“Sayyid al-mursalin”-elchilarning sayyidi. “Risolatpano”-elchilik,payg`ambarlik panoji.  
Muhammad alayhissalomning sifatlaridan biri.

Ushbu baytda Haziniy Alloh yaratgan barcha odamlarning yaxshisi va payg`ambarlarning sayyidisiz deb ta’riflar beradi. Shoирning mana shunday sifatlashlari ham Muhammad payg`ambarimizni boshqa payg`ambarlarga nisbatan ulug`,qudratli kanligini anglashimiz mumkin.

5-bayt:

Mani osiyni yetkurur ravzaga  
Qachon ul xudo, yo hayot an-nabiy.  
“Osiy”-gunohkor. “Ravza” –jannat.

Ushbu baytda shoир allohning jannatidan umidvorligi va ana shu niyatda payg`ambarga murojat qilyapti.Bilamizki , jannat yaxshi amallar egasiagina nasib qiladi shoир Haziniy ham xudojoy,porso kishi bo`lganlar.

6-bayt:

Tavof aylasam xonayi Kabani ,  
Budur muddao, yo hayot an-nabiy.

Payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v) marhamat qilib aytadilarki: “Islom beshta ustun ustiga qurildi.Birinchisi, “La illaha ilalloh,Muhammadun rasulloh”,deb shahodat berishlik.Ikkinchisi,namoz o`qish.Undan keyingisi zakot berishlik va undan keyingisi haj qilishlik va oxirgisi va oxirgisi ro`za tutishlikdir.Shunday ekan Kaba bu Allohning uyi uni ziyyarat qilishlik har bir musulmon uchun farz hisoblanadi. Bu farz amali moddiyatga taaluqli bo`lgan ibodatdir.Moddiy tomonidan hajga borib kelishga qurbi yetadigan,salomatligi ko`taradigan kishiga umrida bir marta haj qilishlik farz hisoblanadi.

7-bayt:

Qolay “Jannatul-Baqya” xokida man  
Ki,etsa qazo, yo hayot an-nabiy.  
“Jannatul-Baqya”-Saudiya Arabistonning Madina shahridagi joy.

Alloh taolo aytadilar: “Men jinlar va insonlarni faqat o`zimga ibodat qilishlari uchungina yaratdim” (Zoriyot surasi,56-oyat)deya marhamat etgan.

Insonlarning yashashlaridan murod-yaxshi ishlar qilib o`zidan ezgu nom qoldirishdir.Mo`min-u musulmonlar shu niyat bilan yashab jannatdan umid bilan yashaydilar.Boqiy jannat esa faqat iymon e`tiqodi mustahkam,taqvodor,vijdoni pok, yaxshi amallar egasi bo`lgan kishilargagina nasib etadi.Shuni ham aytish joizki,Haziniy bobomiz ham yuqoridagi xususiyatlarni o`zlarida jamlagan inson edilar.

8-bayt:

Hama ummatingiz umid aylashur

Ki,ro`zi jazo, yo hayot an-nabiy.

Ushbu baytda barcha ummatlaringiz mahshar kuni Muhammad (s.a.v)ning shafoatlaridan umid qiladilar.Qiyomatda bandalar jazo yoki mukofot olishlari mumkin bo`lgan kunda Allah tomon yuzlanadilar va gunohlari uchun mag`firat so`raydilar.

9-bayt:

Haziniy duosi bo`lurmu qabul

Bu g`arqi guno, yo hayot an-nabiy.

Shoir baytda qilgan duo va ibodatlarim Allahimga qabul bo`ladimi deya payg`ambarimizdan najot tilayapti.

Nabiy sollalohu alayhi vasallam o`zlarining dunyo va oxiratdagi darajalari haqida shunday deganlar:


“Faxrlanish emasu,men qiyomat kuni odam bolasining sayyidiman.Faxrlanish emasu,hamd bayrog`i mening qo`limda( bo`ladi).Har qaysi payg`ambar,Odammi,undan boshqasimi,mening bayrog`im ostida bo`ladi.Faxrlanish emasu,men eng birinchi shafoat qiluvchi va eng avval shafoatga izn beriluvchi zotman.Birinchi bo`lib jannat (eshiklari)halqalarini harakatga keltiruvchi ham menman.Bas,Allah meni va men bilan birga faqir mo`minlarni unga (jannatga) kiritadi,Faxr yo`q (faxrlanish emas). Faxrlanish emas,men Robbim uchun avvalgilaru oxirgilarning eng qadrlisiman” (Imom Termiziy rivoyati).

Ushbu g`azal boshdan oyoq payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning vasfiga bag`ishlangan.Haq taolo payg`ambarlarni ,ayniqsa, Muhammad (s.av)ni har jihatdan yetuk, zohiriylar va botiniy tomondan mukammal qilib yaratdi.Haziniy ham barcha payg`ambarlar va insonlar iqtido qiladigan ulug` zot Muhammad (s.a.v) dir deydi.Muhammad(s.a.v) ummatlai uchun jonfido,juda shafqatli va mukarram zot hisoblanadi.

Haziniy ijodining mavzu doirasining kata qismi Allahga payg`ambarimiz Muhammad Mustafoga va boshqa payg`ambarlar avliyolar-u anbiyolarning ta`rifini uchratamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

- 1.Абдулахатов Н. ва бошқалар. Хазиний юрти. – Т.: Янги аср авлоди. 2010.
- 2.Amonova Z. Haziniy ijodida Muhammad Payg`ambar vasfi. – T.: Navro`z. 2017.



3. Haziniy. Devon. – Toshkent:. Ma’naviyat. 1999.
4. Haziniy. Tasadduq, yo Rasululloh. – Toshkent:. Yozuvchi. 1992.
5. Komilov N. Tasavvuf. Toshkent:. Movarounnahr. 2009.
6. Maqsudova N. Haziniy Xo`qandiyning ma’naviy merosi. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH.2022.
7. Navoiy asrlari lug’ati. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1972.
- 8.Qur’oni Karim. (O’zbekcha izohli tarjima). – T., 1992.

**INTERNET ADABIYOTLARI:**

9. <http://www.ziyonet.uz>.
10. <http://vlibrary.Freenet.uz> – “Virtual kutubxona” elektron darsligi
11. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
12. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
- 13 . [www.markaz.uz](http://www.markaz.uz)
14. [www.navoiy.uz](http://www.navoiy.uz)
15. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
16. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)